

Uzbekistan Airways parvoz davomida niqob taqish rejimiga rioya etilishini eslatib o'tadi

2021 24 Dekabr

COVID-19 va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishini, shuningdek, yo'lovchilarning o'zlarini noqulay xis qilishlarini kamaytirishni oldini olish maqsadida aeroportlarda va havo kemasida salonida burun va og'izni yopadigan niqob va boshqa himoya vositalarini taqishishingizni so'raymiz. Emlangandan keyin ham niqobni ishlating. Agar yo'lovchilar quyidagi ko'rsatmalarga rioya qilmasalar, aviakompaniya havo kemasiga chiqishni rad etishi mumkin:

- Boshqa yo'lovchilar parvoz davomida havotirlanishi yoki noqulayliklarga duch kelishi mumkinligi sababli, barcha yo'lovchilardan doimiy ravishda niqob taqishlarini so'raymiz (kichik bolalar, jumladan, chaqaloqlar uchun qo'llanilmaydi). Agar sizga niqob taqish mumkin bo'lmasa, yuz himoya ekranini va boshqalarni ishlatishingiz mumkin. Ovqatlanish vaqtida niqobni uzoq vaqt davomida olib tashlamaslikni va boshqa yo'lovchilar bilan baland ovozda muloqot qilmasligingizni so'raymiz;
- Agar yo'lovchi noqulaylik tug'dirsa yoki boshqa yo'lovchilarni bezovta qilsa, aviakompaniya faoliyatiga to'sqinlik yoki pandemiyaga qarshi qoidalarga rioya qilmasa, aviakompaniya yo'lovchiga parvozni amalga oshirishni rad etishi mumkin;
- Samolyotga o'tirayotganingizda va undan chiqib ketayotganingizda, yo'lakda boshqa yo'lovchilardan ijtimoiy masofani saqlayotganingizga ishonch hosil qiling.

Uzbekistan Airways yo'lovchilar, ekipajning sog'lig'i haqida qayg'uradi va pandemiya sharoitida har bir parvozning qulay va xavfsiz o'tishi uchun barcha sharoitlarni yaratadi.

Bizni to'g'ri tushunganingiz va infeksiya tarqalishining oldini olishda hamkorlik qilayotganingiz uchun tashakkur bildiramiz.

Telegram: t.me/uzbekistanairways